

JAMIYATDA AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING OQIBATLARI VA SABABLARI

Kubayeva Sevinchoy¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi muhokama qilinadi. Zo‘ravonlikning, qanday ko‘rinishlari va turlari mavjud ekanligi haqida so‘z boradi. Bundan tashqari zo‘ravonlikni oldini olish borasida qabul qilingan hujjatlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zi: Zo‘ravonlik, ayollar, tazyiq, gender tenglik, himoya orderi, STEM, konstitutsiya, jismoniy, jinsiy, psixologik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается проблема насилия над женщинами в нашем обществе. В ней рассказывается о формах и видах насилия. Кроме того, цитируются принятые документы по предупреждению насилия.

Ключевые слова: Насилие, женщины, угнетение, гендерное равенство, охранный ордер, STEM, конституция, физическое, сексуальное, психологическое.

ANNOTATION

This article discusses the problem of violence against women in our society. It talks about the forms and types of violence. In addition, the adopted documents on the prevention of violence are cited.

Key words: Violence, women, oppression, gender equality, protection order, STEM, constitution, physical, sexual, psychological.

Ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik bugungi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan hal qilinmaydigan va halokatli inson huquqlari buzulishlaridan biridir. Zo‘ravonlik o‘zi nima? Bu axloqiy tamoyillarga boshqalarning ehtiyojlariga hurmatsizlik va o‘z manfaatlarini hamma narsadan ustun qilishning namoyonidir. Zo‘ravonlik nafaqat ayollar balki har qanday yoshdagi odamlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jamiyatni normal rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning bir necha turlari mavjud. Jumladan, jismoniy, jinsiy va psixologik. Zo‘ravonlikning salbiy psixologik va boshqa oqibatlari ayollar hayotining barcha bosqichlariga ta’sir qiladi. Masalan: qizlar uchun erta ta’limni cheklash nafaqat umumiy ta’lim va qizlarning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish uchun katta to‘siq balki, kelajakda oliy ma’lumotli bo‘lish va mehnat bozoriga kirishlarini cheklashdir. O‘zbekiston Respublikasida Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida 2019-yilning 2-sentabr sanasida amal qilish muddatini boshlagan O‘RQ-561-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni rasman e’lon qilingan. Ushbu qonunda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida “Xotin-qizlarning hayoti sog‘lig‘i uchun paydo bo‘lgan xavfni bartaraf etish, tezkor chora-tadbirlarni talab

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabasi



qiladigan hayotiy vaziyatlar yuz berganda xotin-qizlarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek jabirlanuvchiga nisbatan tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning takroran g'ayriqonuniy xatti-harakatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadidagi iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik va boshqa tushadigan kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar tizimidir.²

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari juda uzoq tarixga ega. Bunday zo'ravonlik hodisalari va ularning intensivligi vaqt o'tishi bilan o'zgarib borgan hamda bugungi kunda ham jamiyatlar orasida farqlanadi. Ushbu holatlarga ko'pincha jamiyatda yoki shaxslararo munosabatlarda ayollarni buysundirish mexanizmi sifatida qaraladi. Bu kabi jinoyatlar huquqbuzarlik, ustunlik yoki shunga o'xshash munosabatlarda jinoyatchining ayollarga nisbatan zo'ravon tabiatini yuzaga keltirishi mumkin. Jamiyatimizda ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklarni teng huquqliligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu prinsipni amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga ta'lim olishda, kasbiy tayyorlanishda ishda mehnat uchun rag'batlantirishda va xizmat yuzasidan ko'tarilishda teng huquqiy imkoniyatlar yaratilgan. Qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib unga ko'ra, gender-xotin qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq mafkura va ma'daniyat ta'lim hamda ilm-fan sohalarida nomoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki, har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Yurtimizda keyingi yillarda gender tengligini ta'minlash sohasida izchil va samarali sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Asosiysi, xotin qizlar huquqlari kafolotlarini ta'minlashning qonunchilik me'zonlari ham zamon talablariga mos holda takomillashtirilmoqda. Bunda ayollarga nisbatan kuch ishlatish, ayniqsa, oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etishga jiddiy ahamiyat qaratmoqda. Xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, gender tenglik va zo'ravonlikka qarshi kurash masalalarida xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlandi. Xususan UNICEF, UNFPA BMT, jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, USAID, kabi xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama takliflar asosida yillik qo'shma rejalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.³ Qisqa muddatlarda tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarning poymol bo'lgan huquqlarini tiklash, va ular uchun ichki ishlar tizimlari ko'magi, psixologik yordam, ular himoyasini ta'minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika choralari ko'rish, jazolash tizimlarini ishga tushirishni ta'minlash ishlari yulga qo'yildi. Mana shunday ijtimoiy dolzarb bo'lgan vazifalardan biri bu- tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko'rsatish tizimlari, xizmatlari, usul, vosita yo'llarini xorij tajribasi asosida ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, sohani talab etilgan kompetensiyaga ega bo'lgan ilg'or mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, tazyiq va zo'ravonlik borasidagi innovatsion bilim malaka va ko'nikmalarni keng aholi o'rtasiga targ'ib va tashviq etish zarur.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida shunday degan edi: "Bugungi har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak".⁴ Prezidentimizning bu so'zlari nafaqat ayollarni ijtimoiy himoya qilish, balki xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hukumatni tiklash haqida aytilgan. O'zbekistonda 2021-yilning birinchi yarmi davomida qaryib 18ming

²"O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019-yildagi O'RQ-561-son"

³ G.G. Tuychiyeva. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko'rsatish. « Mahalla va oila nashriyoti» Toshkent-2022

⁴ Oliy majlis senatidagi nutqi-2019 yil



nafar ayol tazyiqqa uchragani aniqlangan. Ulardan 9ming nafari ruhiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkich 2020-yilning mos davriga nisbatan 2,5 baravar yoki 5ming nafarga ko‘p miqdorini keltirib chiqaradi. Ushbu masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi hamda Gender tengligi masalalari bo‘yicha komissiyasining kengaytirilgan yig‘ilishida Senat raisi Tanzila Norboyeva ma‘lumot bergan.⁵ Davlatning strategik maqsadi mazkur yo‘nalishda xotin-qizlar manfaatlarini doimiy muhofaza qilishni joriy etish orqali inson huquqlari bo‘yicha demokratik talablarni so‘zsiz amal qilishni ta‘minlashdan iborat. Shu jumladan, jamiyatimizda ba‘zi odamlar “Ayol kishiga tazyiq o‘tkazishda uni urish mumkun, bunga ruhsat bor. Ayolni urganlik uchun zulm ko‘rsatgan zo‘ravonga hech nima bo‘lmaydi deb fikr yuritadilar. Biz kundalik hayotimizda mana shunday adolatsiz va notug‘ri qarashlardan xalos bo‘lishimiz zarur. Shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikning har qanday turlarini taqiqlash, jamiyatimizda sog‘lom qadriyatlarni o‘rnatish, farzandlarni ayol kishi, uning salomatligi hamda jonini e‘zozlash va hurmat qilish, izzatlash va asrab-avaylash qadriyatlari asosida tarbiya qilish zarur.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlariga yechim topish maqsadida 2020-yilning 4-yanvar sanasida amaldagi hukumat rahbari bosh vazir Abdulla Aripov tomonidan imzolangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan mahalliy ichki ishlar organlari tomonidan zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga “Himoya orderi” berish ma‘qullandi.⁶ Himoya orderi-tazyiq va zo‘ravonlikdan jabirlangan ayol jinsiga mansub shaxsga hukumat himoyasini taqdim etadi. Xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazgan yoki ularga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirishga ruxsat etuvchi hujjat hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ayollar tazyiq va zo‘ravonlikka uchrab turadi. Agar tajovuzga duch kelgan ayol ichki ishlar organlariga murojat qilsa, ularga himoya orderi beriladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi axborot xizmatining «Gazeta.uz»ga ma‘lum qilishicha, 2022-yilning 9-oyida zo‘ravonlik va tazyiqdan jabrlangan 37 959 nafar xotin-qizlarga himoya orderi berilgan. Himoya orderi rasmiylashtirilgan shaxslarning muammolarini hal etish natijasida salkam 19ming oila yarashtirilgan, 16mingdan ortiq nizoli holatlarning sabablari bartaraf etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jamiyatimizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish uchun xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash imkoniyatlarni kengaytirish, STEM tashabbuslarini ilgari surish orqali ularning ijtimoiy iqtisodiy sharoitlari va imkoniyatlarini yaxshilash. Ma‘lumotlarini to‘plash va tahlil qilish metodologiyalarini ishlab chiqish va buning uchun maxsus raqamli vositalarni yaratish orqali ayollarning ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy ishtiroki, gender zo‘ravonlik to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini to‘plab va tahlil qilishimiz kerak. Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan ogohlantirish, ularni aniqlash va oldini olish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqishimiz zarur. Hukumat organlari va fuqorolik jamiyatlari ayollarning tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini o‘rganish va bunday holatlarning oldini olish, jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy ma‘daniyatni oshirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019-yildagi O‘RQ-561-son”
2. G.G. Tuychiyeva. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabirlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish. «Mahalla va oila nashriyoti» Toshkent-2022

⁵ “O‘zbekistonda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, tahlid, tazyiq keskin oshdi” Qalampir.uz.

⁶ “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari tug‘risida” Qarori



3. Oliy majlis senatidagi nutqi-2019-yil
4. “O‘zbekistonda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, tahlid, tazyiq keskin oshdi” Qalampir.uz.
5. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” dagi Qarori

